

**AKTIVLAR BILAN TA'MINLANGAN TOKEN
WHITE PAPER**

**AKTIVLAR BILAN TA'MINLANGAN AUZ TOKENI
CHIQRISH BO'YICHA DEKLARATSIYA**

Emitent: "FINANCE INVEST BROK" MCHJ

Yurisdiksiya: O'zbekiston Respublikasi

Versiya sanasi: 10.03.2026

ANNOTATSIYA

Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasida oltin bilan ta'minlangan AUZ tokeni (bundan buyon – AUZ tokeni) chiqarish bo'yicha loyihaning rasmiy deklaratsiyasi hisoblanadi.

Jahonda eng yirik oltin ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadigan O'zbekiston Respublikasi AUZ tokeni chiqarish bo'yicha loyihani amalga oshirish uchun zaruriy iqtisodiy, infratuzilmaviy va huquqiy shart-sharoitlarga ega.

Loyiha taqsimlangan ma'lumotlar reyestri (blokcheyn) yordamida oltinga bo'lgan huquqlarni raqamli hisobga olish, muomalaga kiritish va so'ndirishning shaffof, tartibga solinadigan va texnologik jihatdan barqaror mexanizmini shakllantirishga qaratilgan. Loyihani amalga oshirish muhim jarayonlarni – tokenlarni chiqarish, ularning ta'minoti, saqlash va hisobga olishni bitta yurisdiksiya doirasida va vakolatli organlar nazorati ostida to'plashni ko'zda tutadi.

AUZ tokenini chiqarish maqsadi ma'lumotlarning taqsimlangan reyestr texnologiyalari (blokcheyn) dan foydalanish vositasida bozor ishtirokchilari uchun oltin bilan o'tkaziladigan operatsiyalarni, bir vaqtning o'zida tokenlar egalari huquqlari va amalga oshiriladigan operatsiyalarning shaffofligini ta'minlagan holda, kengaytirish hisoblanadi.

AUZ tokeni foizlar yoki boshqa davriy to'lovlar hisoblanishini ko'zda tutmaydi.

AUZ tokening iqtisodiy tabiati bazaviy aktiv sifatida qiymatni saqlab qolish uchun an'anaviy tarzda foydalaniladigan, geografik xatarlarga va inflyatsiya jarayonlari sharoitida fiat valyutalar uchun xos bo'lgan valyutaning qadrsizlanishiga kamroq uchraydigan oltinga asoslangan.

Emitent to'g'risida axborot

AUZ Tokening emitenti «Finance Invest Brok» MCHJ hisoblanadi, u qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi va investitsiya maslahatchisi (15.05.2023-yildagi 081349 (L-501214)-sonli litsenziya) sifatida professional faoliyat olib boradi va 2023-yil 6-iyundan "Toshkent" Respublika fond birjasining a'zosi (№496) hisoblanadi. O'z faoliyati doirasida "Finance invest Brok" MCHJ, AUZ tokenining emitenti sifatida tokenlar egalari oldida bevosita White Paper va (yoki) shartnomalar bilan ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajaradi.

Emitent to'g'risida asosiy ma'lumotlar:

Emitent to'g'risida asosiy ma'lumotlar:

- Yuridik shaxsning to'liq nomi: **«Finance Invest Brok» Mas'uliyati cheklangan jamiyati**
- OKED (IFTUT): **64300 trast-jamg'armalar va shu kabi moliyaviy tashkilotlar**

Faoliyatiga misollar: **aktivlarni boshqarish, ulushli investitsiya jamg'armalari, trast kompaniyalari.**

- Ishlab chiqaradigan tovarlari va ko'rsatadigan xizmatlari: **aktivlar bilan ta'minlangan AUZ investitsiya tokeni.**

Yuridik manzili: **100011. Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Chaqar MFY, Navoiy ko'chasi 25A.**

- Aloqa ma'lumotlari: **finbrok@umail.uz, +998 90 017-10-82**

Ishlab chiquvchi to'g'risida axborot:

Blokcheyn-platforma va texnologik infratuzilmaning ishlab chiquvchisi «Asterium» mas'uliyati cheklangan jamiyati hisoblanadi.

Yuridik manzili: O'zbekiston , Toshkent sh., Said Baraka ko'chasi 12A

STIR 311876558

Aloqa ma'lumotlari: +998 (78) 777-55-58, support@asterium.uz

Loyiha doirasida alohida dasturiy yechimlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha tyexnologik pudratchi sifatida EPAM kompaniyasi, dasturiy ta'minot, raqamli transformatsiya ishlab chiqishga va korporativ va davlat sektori uchun masshtablanadigan texnologik platformalar yaratishga ixtisoslashgan xalqaro AT xolding jalb etilgan.

Yuridik manzili: 41 University Drive, Suite 202, Newtown, PA 18940

Telefon raqami 267-759-9000, Fax 267-759-8989.

Glossariy (Atamalar lug'ati)

AUZ (Aurum Uzbekistan) – oltin bilan ta'minlangan chiqariladigan investitsiya tokenining nomi.

AUZ tokeni (Aurum Uzbekistan) – Emitent tomonidan chiqariladigan, ushbu «White paper» va chiqarish shartlari bilan belgilangan tartibda va shartlarda egasining moddiy oltinning tegishli hajmiga mulkiy huquqlarini tasdiqlaydigan aktivlar bilan ta'minlangan investitsiya tokeni.

- **Emitent** — O'zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanadigan, AUZ tokeni chiqarishni amalga oshiradigan, o'z zimmasiga token bilan tasdiqlangan majburiyatlarni oladigan va ushbu White Raper va chiqarish shartlari bilan belgilangan chegaralarda va shartlarda tokenlarning egalari oldida javobgar bo'ladigan «Finance Invest Brok» MCHJ investitsiya kompaniyasi;

Saqlovchi – Octobank AJ tijorat banki, Emitent bilan tuzilgan javobgarlik ostida saqlash shartnomasi asosida va O'zbekiston Respublikasining qo'llaniladigan qonunchiligiga

muvofig AUZ tokeni bo'yicha bazaviy aktiv va majburiyatlarning ta'minoti sifatida foydalaniladigan moddiy oltinni javobgarlik ostida saqlashni amalga oshiradi.

Mirasmanda — kripto-depozitariyning ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri nomi, uning bazasida o'rnatilgan tartibda AUZ tokenlarini chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish amalga oshiriladi.

Token egasi (Foydalanuvchi) — AUZ tokenlari qonuniy asoslarda tegishli bo'lgan va ushbu tokenlarni chiqarish to'g'risidagi qaror, White Raper va O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga muvofiq tegishli token bilan tasdiqlanadigan mulkiy huquqlarga ega bo'lgan shaxs.

Kripto-aktiv — ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtdagi raqamli yozuvlar yig'indisi shaklida ifodalangan, qimmatga ega va egasi mavjud bo'lgan, blok-cheyn texnologiyalardan foydalanib hisobga olinadigan mulkiy huquq.

Kripto-depozitariy — kripto-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish, kripto-aktivlarni saqlash uchun, shuningdek ularning ta'minoti mavjudligini tekshirish uchun elektron platforma va (yoki) texnik va dasturiy vositalar majmuini taqdim etuvchi O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxs. Ushbu loyiha doirasida kripto-depozitariy vazifasini tokenlarni chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish, saqlash va nazoratini ta'minlash uchun infratuzilmani ta'minlaydigan «Asterium» MCHJ kripto-depozitariysi bajaradi.

Ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri (blokcheyn) — taqsimlangan reyestr texnologiyasiga asoslangan axborot tizimi bo'lib, AUZ tokenlarini chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish, muomalaga kiritish va yo'q qilish to'g'risidagi ma'lumotlarning o'zgarmaydigan hisobini ta'minlaydi.

Smart-kontrakt — Mirasmanda ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtda joylashtirilgan ERC20 formatdagi dasturiy kod, AUZ tokenlarini chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish, muomalaga kiritish va yo'q qilishni texnik amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tokenlarni chiqarish — tashkiliy, huquqiy va texnik harakatlar majmui bo'lib, ularning natijasida AUZ tokenlari yaratiladi, ular ro'yxatdan o'tkaziladi va muomalaga kiritiladi.

Tokenlarni joylashtirish — AUZ tokenlarining birlamchi taklifi, Emitent tomonidan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda, shu jumladan kripto-birjadan foydalanib amalga oshiriladi.

Tokenlar muomalasi — O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, «White paper» va shartnomalarga muvofiq AUZ tokenlari bilan amalga oshiriladigan egalik qilish, saqlash, berish va boshqa yo'l qo'yiladigan operatsiyalar.

Tokenlarni yo'q qilish — ta'minlangan AUZ tokenlarini egasining arizasi bo'yicha yo'q qilish doirasida Emitent tomonidan amalga oshiriladigan texnik protsedura bo'lib, u token egasining tegishli miqdordagi tokenlarni Emitentga berishi, bunday tokenlarning ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtda mavjudligini qaytib bo'lmaydigan tarzda to'xtatish va kripto-depozitariy reyestrtda yoqib yuborish to'g'risidagi ma'lumotlarni albatta qayd qilishni o'z ichiga oladi, Emitent tokenlar egalari oldidagi majburiyatlarini

ularga O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida yoki «HUMO» tokenida oltin qiymatining pul ekvivalentini va (yoki) quymalardagi moddiy oltinning tegishli hajmini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, «White paper» va shartnomalarda ko'zda tutilgan tartibda va shartlarda berish yo'li bilan bajaradi, yoqish vaqtidan boshlab Emitentning tokenlarning tegishli hajmi bo'yicha majburiyatlari to'xtatilgan deb hisoblanadi.

Tokenlar chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish – kripto-depozitariy tomondan AUZ tokenlarini chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlarni tokenlarni muomalaga chiqarish maqsadlarida kripto-aktivlar elektron reyestriga kiritish.

Oltin quymasi (moddiy oltin) – probasi 999,9 dan (sof oltin miqdori 99,99%) past bo'lmagan, individual raqamiga ega va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga va qimmatbaho metallarni saqlashning qo'llaniladigan bank standartlariga muvofiq tayyorlangan oltin quymasi.

Kirish

Oxirgi yillarda raqamli texnologiyalar aktivlarni hisobga olish, muomalaga kiritish va boshqarish imkoniyatlarini kengaytirib moliyaviy sektorni ancha o'zgartirib yubordi. To'lov yechimlari va kripto-aktivlarning rivojlanishi bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarning afzalliklarini an'anaviy moddiy aktivlarning ishonchliligi bilan qo'shish imkonini beradigan vositalar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada haqiqiy aktivlar, eng avvalo qiymatni saqlab qolishning eng barqaror va universal vositalaridan biri sifatida oltinni tokenlashtirishga qiziqish oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida oltin qazib olish yillik hajmining anchagina ulushi Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlariga to'g'ri keladi, bu xalqaro bozorlarda mamlakatni oltin ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jahon yetakchilaridan biri hisoblanishini ta'minlaydi.

Eksport uchun yetkazib berish bilan bir qatorda oltin bilan operatsiyalar ichki bozorda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu oltinning ham mamlakat ichida, ham tashqarisida muomalada bo'lishi uchun barqaror infratuzilmani va moliyaviy bazani shakllantiradi.

Shu bilan bir haqida, qimmatbaho metallar bilan ishlash vositalarining rivojlanishiga qaramay, an'anaviy platformalarda oltin bilan savdo qilish bir qator tuzilmaviy cheklavlar bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Bunday cheklavlarga reglamentlangan savdo vaqti, savdo lotlarining o'rnatilgan minimal o'lchamlari, shuningdek narxlarning shakllanish jarayonlari va operatsiyalarni hisobga olishning shaffofligi cheklanganligi kiradi.

Oltinni tokenlashtirish taqsimlangan reyestr texnologiyalaridan foydalanish hisobiga ko'rsatilgan cheklavlarni yengib o'tish imkonini beradi, hisobga olishning uzluksizligini, operatsiyalardan foydalanish imkoniyati va moddiy oltinga huquqlar muomalasining shaffofligini oshirishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, oltin tokenini sotish O‘zbekiston Respublikasi mineral resurslari va ruda konlarini, shu jumladan Mirasmanda blokcheyn-infratuzilmasidan foydalanib tokenlashtirish bo‘yicha loyihalarni yanada rivojlantirish uchun texnologik va huquqiy asosni shakllantiradi.

Muammo

Birinchidan, an’anaviy birjalar va birjadan tashqari platformalarda oltin bilan savdo belgilangan savdo vaqti va reglamentlari doirasida amalga oshiriladi, bu operatsiyalarning uzluksizligini cheklaydi va bozor ishtirokchilari uchun aktivdan foydalanish tezkorligini pasaytiradi.

Ikkinchidan, oltin bilan operatsiyalar, odatda, minimal savdo loti mavjud bo‘lishini ko‘zda tutadi, bu ishtirokchilarning keng doirasi uchun aktivdan foydalanishni cheklaydi va oltindan uni bosqichma-bosqich to‘plash yoki qisman begonalashtirish vositasi sifatida foydalanishni qiyinlashtiradi. An’anaviy vositalar doirasida oltinning kichik miqdoriga egalik qilish cheklanganligicha qolmoqda.

Uchinchidan, oltinga egalik qilishning an’anaviy shakllari saqlash, tashish, sug‘urtalash va hujjat aylanishi bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar bilan bog‘liq. Bu xarajatlar oltin bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini pasaytirishi va undan raqamli iqtisodiyotda foydalanilishini cheklashi mumkin.

Ko‘rsatilgan cheklovlar oltin muomalasining moddiy aktivning ishonchligini raqamli texnologiyalarning afzalliklari, shu jumladan hisobga olishning shaffofligi, operatsiyalardan foydalanish va bo‘lib egalik qilish imkoniyati bilan mujassamlashtiradigan yangi vositalarini yaratishga talabni shakllantiradi

Yechim

AUZ tokeni ma’lumotlarning taqsimlangan reyestri (blokcheyn) dan foydalanib moddiy oltinni tokenlashga asoslangan texnologik va huquqiy yechimni taklif etadi.

AUZ tokeni O‘zbekiston Respublikasi hududida qazib chiqarilgan, qayta ishlangan va quyilgan moddiy oltin bilan bog‘liq mulkiy huquqlarni raqamli hisobga olishni ta’minlaydi. Blokcheyn-infratuzilmadan foydalanish, an’anaviy platformalarning savdo sessiyalariga bog‘liq bo‘lmagan holda tokenni hisobga olish va muomalada bo‘lishining uzluksizligini ta’minlash imkonini beradi, bu bilan bozor ishtirokchilarining oltin bilan operatsiyalardan foydalanishini kengaytiradi.

AUZ tokeni modeli bazaviy aktivga qisman egalik qilish imkoniyatini ko‘zda tutadi, bu savdo lotining minimal o‘lchami bilan bog‘liq cheklovlarni olib tashlaydi va ishtirokchilar keng doirasining oltindan foydalana olish imkoniyati yanada ortadi. Bunda tokenga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish ma’lumotlarning taqsimlangan reyestrda amalga oshiriladi, bu esa operatsiyalarning shaffofligini oshiradi va tokenlarning o‘zgarmaydigan shaklda chiqarilishi, muomalaga kiritilishi va yo‘q qilinishini qayd qilish imkonini beradi.

Loyiha AUZ tokenining moddiy oltin shaklidagi ta'minotini muomaladagi tokenlar miqdoriga muvofiq hajmda shakllantirishni va saqlab qolishni ko'zda tutadi, bunda ta'minotning mavjudligini kripto-depozitariy orqali tekshirish imkoniyati bo'ladi.

Bu bozor ishtirokchilarining vositachilarga bog'liqligini pasaytiradi va yuqoridagi vositalarga ishonchini oshiradi.

Qo'shimcha tarzda AUZ tokeni hisobga olishni raqamlashtirish va jarayonlarni avtomatlashtirish hisobiga saqlash, tashish va hujjat aylanishi bilan bog'liq xarajatlarni maqbullashtirish imkonini beradi, bunda chiqarish shartlarida belgilangan tartibda moddiy oltin va (yoki) pul ekvivalentini olib tokenni yo'q qilish imkoniyati saqlab qolinadi.

Shu tariqa, AUZ tokeni oltin muomalasining moddiy aktiv ishonchligini raqamli texnologiyalarning afzalliklari bilan birlashtiradigan va O'zbekiston Respublikasining moliyaviy infratuzilmasiga integratsiyalashga yo'naltirilgan tartibga solinadigan va texnologik jihatdan barqaror modelini shakllantiradi.

1. AUZ tokeni konsepsiyasi va o'ziga xos xususiyatlari

AUZ tokeni – moddiy oltin bilan to'liq ta'minlangan va chiqarish shartlari bilan o'rnatilgan tartibda token egasining oltinning tegishli hajmini va (yoki) uning pul ekvivalentini olish huquqini tasdiqlovchi kripto-aktiv.

Token blokcheyn-texnologiyadan foydalanib O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilinganda oltinga bo'lgan huquqlarni raqamli hisobga olish uchun yaratilgan.

1.1. Asosiy tavsiflari

Komponent	Funksionallik
Chiqarish mamlakati	O'zbekiston Respublikasi
Emitent	«Finance Invest Brok» MCHJ
Ta'minot	Muomalada bo'lgan AUZ tokenlari miqdoriga muvofiq hajmda shakllantirilgan moddiy oltin
Ta'minotni saqlash	Saqlovchi — Octobank AJ tijorat banki Emitent bilan shartnoma asosida
Ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri	Mirasmanda blokcheyni (kripto-depozitariysi)
Smart-kontrakt standarti	ERC20
Bazaviy aktiv bilan nisbati	1 AUZ tokeni 1 gramm oltinga to'g'ri keladi
Minimal kasr birligi	0,0001 token (0.0001 gramm oltin), texnik jihatdan verguldan so'ng 18 ta belgi bo'lishi mumkin
in-kind yo'q qilish	5 gramm oltinga karrali
Kripto-aktiv tipi	Aktivlar bilan ta'minlangan investitsiya tokeni

1.2. Ta'minlangan token va moddiy oltinni qiyoslash

Qiyosiy tahlil

Jihati	Moddiy oltin	Tokenlangan oltin (AUZ)
Bo'linuvchanlik	Belgilangan minimal og'irlikdagi quymalar shaklida sotib olish (O'zbekiston Respublikasi banklarida) mumkin –5 gr. boshlab	0,01 grammdan boshlab oltin (0,01 AUZ token) sotib olish imkoniyati
Quymalar ekspertizasi	Proba haqiqiyliги, og'irligi va sofligini tasdiqlash uchun Ekspertiza o'tkazish va ixtisoslashgan vositalardan foydalanish talab qilinadi	Ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtdagi yozuvlar chiqarish, muomalaga kiritish va egalik qilishning shaffof hisobga olinishini ta'minlaydi
Hisob-kitoblar tezligi	Banklar va birja maydonchalari ish rejimi bilan cheklangan	Operatsiyalar blokcheyn-infratuzilmalar doirasida 24/7 ochiq
Transchegaraviy muomalasi	Olib chiqish me'yorlari bilan cheklangan (jumladan deklaratsiyasiz limitlar soni bilan)	tokenning raqamli shaklda transchegaraviy muomalada bo'lish imkoniyati qo'llaniladigan qonunchilikka muvofiq
Saqlanishi	Moddiy saqlash, sug'urta va xavfsizlik choralarini talab qiladi	Ta'minot Saqlovchida saqlanadi; huquqlar raqamli shaklda hisobga olinadi
Mulk huquqlarini berish	Moddiy shaklda berish yoki qayta rasmiylashtirishni talab qiladi	Taqsimlangan reyestr (blokcheyn) da raqamli tranzaksiya yo'li bilan beriladi
Hisobga olishning shaffofligi	Axborot bank va ichki hisobga olish tizimlarida saqlanadi	Chiqarish, muomalaga kiritish va qoplash ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtda qayd etiladi
		Oltin yoki pul ekvivalentini yoki HUMO tokenlarini olib raqamli yo'q qilish imkoniyati

Shu tariqa, AUZ tokeni oltin bilan ta'minlangan bo'lishiga qaramay qo'llanishda moddiy oltin nisbatan ancha ko'proq potentsialga ega

1.3. Tashkiliy tuzilma

AUZ tokeni ekotizimi ishtirokchilar o'rtasidagi javobgarlik zonalarini chegaralash asosiga qurilgan bo'lib, bu ta'minot modelining shaffofligini, tartibga solish muayyanligi va ishonchligini ta'minlaydi. Tokenlarni chiqarish, hisobga olish va saqlash jarayonlarini boshqarish shu tariqa tashkil etilganki, bunda texnologik samaradorlik va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilish o'rtasida muvozanat saqlanadi.

Bunda model oltinni moddiy saqlash va tokenlarni raqamli hisobga olish o'rtasida aniq funksional bo'linishni ko'zda tutadi: moddiy oltin bank infratuzilmasi doirasida

Saqlovchida javobgarlik ostida saqlanadi, tokenlarni chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish va muomalaga kiritish ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrda amalga oshiriladi.

Emitent («Finance Invest Brok» MCHJ) AUZ tokenlarini chiqarishni amalga oshiradi, moddiy oltin shaklida muomaladan bo'lgan tokenlar miqdoriga to'g'ri keladigan ta'minotni shakllantiradi, tokenlarning qo'shimcha emissiyasi va ularni qaytib sotib olishni (yo'q qilishni) boshlaydi, shuningdek tokenlar egalari oldida zimmasiga White Paper va Tokenlar chiqarish to'g'risidagi qarorga muvofiq majburiyatlar oladi.

Octobank AJ Emitent bilan tuzilgan javobgarlik ostida saqlash shartnomasi asosida AUZ tokenlari bo'yicha majburiyatlarning ta'minoti sifatida shakllantirilgan moddiy oltinning saqlovchisi vazifasini bajaradi.

Asterium kripto-depozitariysi tokenlarni chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish va saqlash uchun elektron platformadan foydalanadi. Kripto-depozitariy o'z vakolatlari doirasida infratuzilmaning me'yoriy talablarga rioya qilinishi va AUZ tokenlari bilan operatsiyalarning shaffofligini kafolatlovchi muhim elementi hisoblanadi.

Foydalanuvchilar segmenti – jismoniy va yuridik shaxslar, AUZ tokenlarini o'rnatilgan tartibda sotib oluvchi va ulardan oltinga raqamli egalik qilish instrumenti sifatida foydalanuvchi ekotizimning oxirgi foydalanuvchilari. Tokenlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan ularni berish, saqlash va chiqarish shartlariga muvofiq moddiy oltin va (yoki) uning puldagi ekvivalentini olib, tokenlarni qaytarib berish protsedurasini boshlash imkoniyatiga ega.

AUZ tokenlari Emitent va (yoki) kripto-aktivlar aylanmasi sohasida litsenziyalangan xizmatlar provayderlari orqali sotiladi.

1.4. Chiqarilgan tokenlar qiymatini baholash uslubi

AUZ tokeni qiymati deb, kontekstga bog'liq holda, turli ko'rsatkichlar: birlamchi joylashtirishdagi narxi, ikkilamchi bozordagi bozor narxi belgilanishi mumkin.

4.1. Birlamchi joylashtirishdagi narxi

AUZ tokeni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan token chiqarish sanasiga belgilangan oltin quymalarining rasmiy narxidan kelib chiqib belgilanadigan narx bo'yicha chiqariladi. Ushbu narx birlamchi joylashtirish hajmini shakllantirishda qo'llaniladi.

4.2. Ikkilamchi bozordagi narxi

Ikkilamchi bozordagi AUZ tokeni narxi birja maydonidagi erkin savdolar davomida shakllanadi va talab hamda taklifning nisbati bilan belgilanadi. Bozor narxi bozor kon'yunkturasi, ishtirokchilarning kutishlari va oltin qiymatining dinamikasiga bog'liq holda birlamchi joylashtirish narxidan farqlanishi mumkin.

(1) AUZ tokeni kursi birlamchi chiqarishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan chiqarish sanasiga belgilangan kurs bo'yicha belgilanadi.

(2) AUZ tokeni kursi ikkilamchi bozorda birja maydonchasidagi erkin savdolar davomida shakllanadi va birjadagi talabnomalar kitobidan (order book) foydalanib talab va taklif nisbati bilan belgilandi.

4.3. Ta'minotda aktivlar qiymati:

AUZ tokenini chiqarishda ta'minotda moddiy oltinning tegishli hajmi shakllantiriladi. Muomaladan bo'lgan tokenlarning 100% hajmi 1 AUZ tokeni = 1 gramm oltin nisbatidan kelib chiqib, chiqarilgan tokenlar miqdoriga teng miqdordagi oltin bilan ta'minlanadi.

Ta'minotdagi aktivlar qiymati oltinning joriy bozor narxidan kelib chiqib belgilanadi. Ta'minot hajmi Saqlovchida javobgarlik ostida ishonchli saqlashda bo'lgan moddiy oltin grammlarida baholanadi.

Yangi tokenlar faqatgina ta'minotda moddiy oltinning tegishli hajmi shakllantirilganda chiqariladi, bu ta'minlanmagan emissiya xatarini istisno etadi.

Tokenlarni yo'q qilish ta'minot hajmini yoqib yuborilgan tokenlar miqdoriga mutanosib ravishda kamaytirish bilan boradi.

Tokenlarni chiqarish va yo'q qilish to'g'risidagi axborot taqsimlangan reyestr (blokcheyn) da aks ettiriladi.

4.4. Barqarorlashtirish mexanizmi

Tokenning narxi ikkilamchi bozorda talab va taklif asosida shakllanishi sababli ayrim davrlarda oltin quymalarning tegishli miqdori qiymatidan og'ishishlar bo'lishi mumkin.

Bunday og'ishishlarni minimallashtirish maqsadlarida quyidagi mexanizmlar majmui qo'llaniladi.

Talab taklifdan oshgandagi mexanizm

Ikkilamchi bozorda AUZ tokenlariga bozor talabi uning taklifidan barqaror oshgan hollarda:

1. Emitent AUZ tokenlarining qo'shimcha emissiyasini amalga oshirishga haqli.
2. Tokenlar faqat ushbu shartlarda qo'shimcha chiqarilishi mumkin:
 - moddiy oltinning tegishli hajmini oldindan sotib olish;
 - ko'rsatilgan oltinni Saqlovchida joylashtirish;
 - token chiqarishni kripto-depozitariyda ro'yxatdan o'tkazish.
3. Token chiqarilishi ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng tokenlar Emitentning hamyoniga o'tkaziladi va vakolatli distribyutorlar orqali bozorda joylashtirilishi mumkin bo'ladi.

Shu tariqa, talab o‘sganida tokenlar taklifining oshishi narxning o‘rtacha bozor narxidan ortib ketishini bartaraf etishga va tokenning bozor qiymati bazaviy aktiv – moddiy oltinning qiymatiga nisbatan tenglashishiga ko‘maklashadi.

Taklif talabdan oshgandagi mexanizm

Ikkilamchi bozorda AUZ tokenlariga bozor talabi pasaygan va tokenlar ortiqcha taklif etiladigan hollarda (bu tokenning oltin qiymatiga nisbatan diskont bilan savdosida ifodalanishi mumkin) quyidagi mexanizm qo‘llaniladi:

1. Tokenlarning egalari Emitentda tokenlarni yo‘q qilish protsedurasini boshlashga haqli bo‘ladi.

Tokenlarni yo‘q qilishda Emitent:

- tokenlarni muomaladan chiqaradi (keyinchalik ularni yoqib yuboradi);
- token egasiga moddiy oltinning tegishli hajmini yoki pul ekvivalentini, yoki HUMO tokenlarini beradi.

2. Muomaladagi tokenlar miqdorini qisqartirish bozor taklifini kamaytiradi va narx diskontini bartaraf etishga ko‘maklashadi.

3. Likvidlikni saqlab turish maqsadlarida qo‘shimcha ravishda market-meyker jalb etilishi mumkin, u quyidagi huquqlarga ega bo‘ladi:

- tokenlarni bozor yoki bozor narxiga yaqin narxda qayta sotib olish;
- narx xatarlarini boshqarish uchun yirik jahon kripto-birjalarida xejlash vositalaridan foydalanish.

Yakun:

Keltirilgan misollar asosida qayd qilish mumkinki, AUZ tokenlari egalari bozor talabining pasayishi oqibatida aktiv qiymatining yo‘qotilish xatariga duch kelmaydi. Moddiy oltin va (yoki) pul ekvivalentini yoki HUMO tokenlarini olib tokenlarni yo‘q qilish mexanizmining mavjudligi tokenning bozor narxi va bazaviy aktivning qiymati o‘rtasida iqtisodiy aloqani shakllantiradi.

Tokenlarni qo‘shimcha chiqarish faqat ta‘minotda moddiy oltinning tegishli hajmi shakllanganda amalga oshiriladi, bu ta‘minlanmagan emissiya va tokenlarni ortiqcha taklif etish imkoniyatini istisno etadi.

Tokenlarni yo‘q qilish ta‘minot hajmini ham mutanosib tarzda kamaytirish bilan birga boradi, bu muomaladagi tokenlar miqdori va oltinning haqiqiy hajmi o‘rtasidagi muvofiqlikni saqlab turadi.

Bunday model chayqovchilik oqibatidagi o‘zgarishlarning qisqa muddatli ta‘sirini pasaytiradi va bazaviy aktiv sifatida oltin qiymatiga bog‘langan tokenlar muomalasining bashorat qilinishini ta‘minlaydi. Ko‘rsatilgan xatarlar moddiy oltinning o‘zining tabiatiga mos va tokenni chiqarish modeli bilan bog‘liq emas. Tokenning moddiy oltin bilan to‘liq ta‘minlanishi AUZ muomalasining barqaror iqtisodiy asosini shakllantiradi.

1.5. Tokenlar egalarining huquqlari

AUZ tokenlarining egalari ularga tegishli tokenlarga nisbatan quyidagi huquqlarga ega:

- AUZ tokenlariga egalik qilish va saqlash huquqi;
- kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari orqali birlamchi yoki ikkilamchi bozorda AUZ tokenlarini sotib olish (xarid qilish) huquqi;
- AUZ tokenlarini begonalashtirish, jumladan ularni uchinchi shaxslarga sotish yoki berish;
- AUZ tokenlarini kripto-birjalar yoki boshqa elektron platformalar boshqa kripto-aktivlar yoki fiat mablagʻlariga ayirboshlash huquqi;
- AUZ tokenlarini chiqarish shartlarida oʻrnatilgan tartibda natura shaklidagi moddiy oltin (in-kind), HUMO tokeni yoki pul ekvivalentini olib yoʻq qilish protsedurasini boshlash huquqi.

AUZ tokenlarining egalari chiqarish shartlarida oʻrnatilgan tartibda natura shaklidagi moddiy oltin (in-kind)ni olib yoʻq qilish protsedurasini boshlashga haqli. Quymalar Emitent orqali Saqlovchi ishtirokida bankning tegishli boʻlinmasida beriladi.

Moddiy oltin natura shaklida (in-kind) faqat 5 (besh) grammdan kam boʻlmagan hajmdagi AUZ tokenlarini yoʻq qilishda beriladi. 5 (besh) grammdan kam boʻlgan hajmdagi tokenlarni moddiy oltin olib yoʻq qilishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Token egasi shuningdek AUZ tokenlarini ikkilamchi bozorda kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari orqali tegishli xizmatlar provayderining qoidalari va amaldagi qonunchilikka muvofiq sotish huquqiga ega.

Koʻrsatilgan operatsiyalar bozor sharoitlarida amalga oshiriladi va tegishli servislar tomonidan oʻrnatilgan komissiyalar qoʻllanilishi bilan birga borishi mumkin.

Oltin quymalarini berishda berilayotgan oltin qiymatidan quyidagi komissiyalar qoʻllaniladi:

- 5 dan 20 grammgacha — 15%;
- 20 dan 50 grammgacha —10%;
- 50 grammdan ortiq —5%.

Komissiya oltin quymalarini berishda ushlab qolinadi va u operatsiyalarga ishlov berish, saqlash, bank xizmatlari koʻrsatish va logistika bilan bogʻliq xarajatlarini qoplaydi.

Tegishli nominaldagi quymalar vaqtincha mavjud boʻlmagan hollarda ular Saqlovchining omboriga tegishli quymalar tushgandan soʻng berilishi mumkin.

1.6. Tokenlarni chiqarish jarayoni

AUZ tokenlari ta'minotda moddiy oltinning tegishli hajmi oldindan shakllantirilgan bo'lsagina Emitent tomonidan chiqariladi.

Tokenlarni chiqarish Emitent tashabbusi bilan amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Emitent 1 AUZ token = 1 gramm oltin nisbatidan kelib chiqqan holda chiqarilishi rejalashtirilayotgan tokenlar miqdoriga teng bo'lgan hajmda moddiy oltin shaklidagi ta'minotni shakllantiradi

2. Oltin quymalari Emitent bilan tuzilgan ishonchli saqlash shartnomasi asosida Saqlovchida ishonchli saqlashga joylashtiriladi

3. Ta'minot shakllantirilgani tasdiqlangandan so'ng Emitent token chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlarni kripto-depozitariyga yuboradi. Kripto-depozitariy taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi va ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrda token chiqarishni ro'yxatdan o'tkazadi.

Moddiy oltinning ekvivalent hajmini oldindan shakllantirmay turib tokenlarni chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

1.7. Tokenlarni yo'q qilish jarayoni

AUZ tokenining hayot sikli doirasida AUZ tokeni egasining arizasi bo'yicha uni yo'q qilish protsedurasi ko'zda tutiladi, bunda keyinchalik tokenlarning tegishli miqdori ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrda yo'q qilinadi.

Shuningdek tokenlar taklifi talabdan oshib ketadigan hollarda – likvidlikni ta'minlash uchun tokenlar tegishli tarzda yo'q qilinishi mumkin.

AUZ tokenlarini yo'q qilish (yoqish) jarayoni oltin qiymatining puldagi ekvivalentini milliy valyutada yoki HUMO tokenlarini olib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu White Paper bilan ko'zda tutilgan tartibda va shartlarda komissiya to'langanda token egasiga moddiy oltin quymasining tegishli hajmini berib amalga oshiriladi.

Tokenni yo'q qilishga so'rov olinganda Emitent shakllantirilgan ta'minot hajmining yetarilishini tekshiradi. Tokenlar miqdorining ta'minot hajmiga muvofiqligi tasdiqlangan so'ng tokenlar smart-kontraktida operatsiyani kripto-depozitariyning ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrda qayd qilib yo'q qilinadi.

Token egasi pul ekvivalentini tanlagan hollarda summa oltinning tokenlarni yo'q qilish sanasidagi tegishli hajmi qiymatidan kelib chiqib, belgilangan komissiyalarni hisobga olgan holda hisob-kitob qilinadi Oltin quymalarini berish tanlangan holda quymalar o'rnatilgan tartibda Saqlovchi orqali beriladi.

Tokenlarni yo'q qilish ta'minot hajmini mutanosib tarzda kamaytirish bilan birga olib boriladi, bu muomaladagi tokenlarning moddiy oltin hajmiga doimiy muvofiqligini ta'minlaydi.

Kripto-depozitariy o'rnatilgan tartibda tokenlarni yo'q qilish to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi, ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrda ularni yoqish faktini qayd qiladi va yo'q qilish to'g'risidagi axborotni joylashtiradi.

1.8. Tokenlarga mulk huquqini berish. Huquqlarni byerish mexanizmi to'g'risida ma'lumotlar

Emitent AUZ tokenlarini birinchi chiqarishni amalga oshiradi, kripto-depozitariy esa birinchi chiqarishni ro'yxatdan o'tkazishni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan kripto-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish va muomalaga kiritish tartibi to'g'risidagi nizom (2022 yil 24 noyabrda 3397-son bilan ro'yxatga olingan) ga muvofiq kripto-aktivlar chiqarilishi tegishli axborot kripto-depozitariy tomonidan kripto-aktivlar ro'yxatiga kiritilgan vaqtdan boshlab ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblanadi.

Sotib oluvchida AUZ tokenlariga mulk huquqi tegishli yozuv ma'lumotlarning taqsimlangan reyestriga kiritilgan va tokenlar egasining balansida aks etgan vaqtdan boshlab yuzaga keladi.

AUZ tokenlariga bo'lgan huquqni berish ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrda tranzaksiyani amalga oshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tranzaksiya ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrda aks ettirilgan vaqtdan boshlab mulk huquqi tokenning yangi egasiga o'tadi.

Tokenlarni berish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- tokenlarni birlamchi joylashtirishda;
- ikkilamchi bozordagi bitimlar doirasida;
- tegishli platformaning qoidalari va amaldagi qonunchilik bilan ko'zda tutilgan tartibda boshqa kripto-aktivlarga ayirboshlash natijasida.

AUZ tokenlarining egasi unga tegishli tokenlarni o'z ixtiyoriga ko'ra boshqarish, shu jumladan ularni boshqalarga berish, ayirboshlash yoki chiqarish shartlari bilan belgilangan tartibda yo'q qilish (yoqish) protsedurasini boshlashga haqli.

Kripto-depozitariy tokenlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish, mulk huquqlarning o'tishini qayd qilish va token egalariga ular tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida axborot taqdim etishni ta'minlaydi.

AUZ tokenlariga egalik qilish, berish va yo'q qilish munosabati bilan yuzaga keladigan nizolar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.

2. Tarmoq xavfsizligining texnologik asosi va ta'minlanishi

AUZ tokenining texnologik arxitekturasi hisobga olishning ishonchliligini, operatsiyalarning shaffofligi va tartibga solish talablariga muvofiqligini ta'minlaydigan ko'p darajali model bo'yicha qurilgan.

AUZ tokeni Mirasmanda ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrining EVM-mos keluvchi tarmog'ida ishlaydi, bu raqamli aktivlarni hisobga olish xavfsizligining yuqori darajasini ta'minlaydi.

2.1. Smart-kontrakt

AUZ tokenining smart-kontrakti Mirasmanda ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrining EVM-mos keluvchi tarmog'ida o'rnatilgan dasturiy moduldan iborat bo'lib, ERC-20 standartiga muvofiq tokenning asosiy funksiyalarini amalga oshiradi.

Kontraktning texnik detallari:

Smart-kontrakt: ERC-20 standarti

Ishlanma tili: Solidity

Blokcheyn: Mirasmanda

Kontrakt manzili: 0x67548883ac1eF0fcbCa53C5B3a2a85AB33e48549

RRD Mirasmanda asosiy tavsiflari:

O'tkazish qobiliyati: > 1,500 TPS

Tipovoy tranzaksiyaning yakunlash vaqti: < 3 soniya

Texnologik stek:

Hyperledger Besu - Public permissioned EVM network

"PoA konsensusi protokoli (proof of authority) / QBFT - Consensus algorithm

Solidity + Hardhat/Ignition - Smart contracts

Xavfsizlik tizimi Hyperledger Besu tarmog'i arxitekturasi bilan ta'minlanadi, smart-kontraktlarning ko'p darajali himoyasiga asoslangan va o'z ichiga quyidagi choralarni oladi:

- gazni cheklash mexanizmiga ega EVM izolyatsiyalangan muhitdagi ijrosi DoS-hujumlardan himoya qiladi.
- Operatsiyalar va tarmoq faolligining haqiqiy vaqtdagi monitoringi avtomatik tarzda shubhali harakatlarni bloklaydi.

Ko'rsatilgan mexanizmlarning majmui tarmoq ishlashining barqarorligini, AUZ tokenlari bilan operatsiyalarning himoyasini va tranzaksiyalarni taqsimlangan reyestrda hisobga olishning ishonchliligini ta'minlaydi.

3. Tartibga solish

Oltin bilan ta'minlangan AUZ tokenini O'zbekiston Respublikasining moliya tizimiga joriy qilish kripto-aktivlar to'g'risida amaldagi qonunchilik doirasida va tartibga soluvchi organlarning talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

AUZ tokeni ta'minlangan kripto-aktivdan iborat va uning chiqarilishi va muomalaga kiritilishi O'zbekiston Respublikasining kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi emitentlar va

xizmatlar provayderlarining faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.1. AUZ tokenining yuridik maqomi va faoliyati ustidan nazorat

AUZ tokenining token chiqarish va uning aylanmasi bo'yicha faoliyati quyidagi organlar tomonidan tartibga solinadi:

- Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) — kripto-aktivlar aylanmasi, xizmatlar provayderi va kripto-depozitariylar ishlashini litsenziyalash sohasidagi tartibga soluvchi organ.
- Markaziy bank (MB) – moliya tashkilotlari faoliyatini nazorat qiladi. Kripto-aktivlar aylanmasini tartibga soluvchi muhim hujjat – 28.11.2022 yildagi 3397-sonli «O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan kripto-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish va muomalaga kiritish tartibi to'g'risidagi nizom». U kripto-aktivlar tushunchalarini, bozor ishtirokchilarining o'zaro harakati va kripto-aktivlar, shu jumladan ta'minlangan tokenlarni tasniflashni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining quyidagi me'yoriy hujjatlari qo'shimcha talablarni qo'yadi:

- O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida» 26.08.2004 yildagi 660-II-son Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 23.08.2021 yildagi «Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to'g'risida» gi O'zRQ-710-son Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 27.07.2017 yildagi PQ-3150-son Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 03.07.2018 yildagi PQ-3832-son Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 27.11.2025 yildagi PQ-359-son Qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyihaviy boshqaruv milliy agentligi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlar bilan kurashish departamentining «Kripto-aktivlar aylanmasi sohasida faoliyat olib boradigan shaxslar uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 09.06.2021 yilda 3309-son bilan ro'yxatga olingan);
- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining «Kripto-aktivlar

aylanmasi sohasida faoliyatni amalga oshirganlik uchun tushumlar miqdorlarini, ularni to'lash va taqsimlash tartibini belgilash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida» gi qarori. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 28 sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan. Ro'yxat raqami 3388);

- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining «Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishda va jinoyatlarni tergov qilish davomida aniqlangan kripto-aktivlarni olib qo'yish, xatlash, saqlash hamda topshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida» gi qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 25 dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan. Ro'yxat raqami 3591);

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining «Tijorat banklari tomonidan qimmatbaho metallar bilan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida» gi qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025 yil 3 noyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan. Ro'yxat raqami 3698).

- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining «Kripto-aktivlar aylanmasi sohasida xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida» gi Buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 15 avgustda ro'yxatdan o'tkazilgan. Ro'yxat raqami 3380);

- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining «Kripto-aktivlar bilan savdolarni amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida» gi Buyrug'i. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 15 avgustda ro'yxatdan o'tkazilgan. Ro'yxat raqami 3379);

- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining «Kripto-aktivlar aylanmasi sohasida tartibga solishning maxsus rejimi («Tartibga solish qumdoni» maxsus rejimi) ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida gi Buyrug'i (30.12.2022 yilda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3409);

- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining «O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan kripto-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro'yxatga olish va muomalaga kiritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida» gi Buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 28 noyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan. Ro'yxat raqami 3397);

- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining «Kripto-aktivlar aylanmasi sohasida xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berish uchun davlat boji miqdorlarini belgilash to'g'risida» gi Buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 17 dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan. Ro'yxat raqami 3584).

Tartibga soluvchi cheklovlar:

Kripto-aktivlar sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyati tegishli litsenziyalarni olishni talab qiladi, tartibga solish qumdoni rejimi loyihalari bundan istisno. Tegishli litsenziyasiz kripto-aktivlarni sotib olish, sotish va ayirboshlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish taqiqlangan.

3.2. Pullarni yuvishga qarshi kurashish (AML) va foydalanuvchilarni identifikatsiyalash (KYC)

Operatsiyalarni litsenziyalangan xizmatlar provayderlari orqali amalga oshirishda foydalanuvchilar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq identifikatsiya (KYC) protsedurasini o'tadilar.

Tranzaksiyalar daromadlarni yuvishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq shubhali faollik bor-yo'qligiga monitoring qilinishi mumkin.

Qonun buzilishlari aniqlangan hollarda yoki vakolatli organlarning so'rovi bo'yicha operatsiyalar amaldagi qonunchilik chegaralarida cheklanishi mumkin.

Tokenlarni foydalanuvchining o'zi boshqaradigan kriptovalyuta hamyonlariga o'tkazishda qo'llaniladigan normalarga rioya qilinishi uchun foydalanuvchining o'zi mustaqil javobgar bo'ladi.

Qonun buzilishlari aniqlangan hollarda yoki vakolatli organlarning so'rovi bo'yicha Emitent fuqarolarning mablag'larini firibgarlar o'g'irlashidan saqlash va ularning ekotizimga kirishini cheklash uchun hamyondagi AUZ tokenlarini muzlatib qo'yishi mumkin. Shu tariqa markazsizlashtirish, xavfsizlik va qonunchilikka rioya qilinishi o'rtasida muvozanat ta'minlanadi.

Noqonuniy moliyaviy operatsiyalarning oldini olish uchun foydalanuvchilar KYC (Know Your Customer) tekshiruidan o'tadilar. Bu quyidagilarni anglatadi:

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar provayderlari tomonidan AUZ tokenlari bilan bog'liq xizmatlarni oladigan har bir foydalanuvchi identifikatsiyalanishi zarur.

Tranzaksiyalar pullarni yuvishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq shubhali operatsiyalarga tekshiriladi.

Yirik moliyaviy operatsiyalar (masalan, AUZ tokenlarini pul mablag'lariga almashtirish yoki oltin quymalarini olish) tartibga soluvchilarning talablariga muvofiq qo'shimcha tekshiruvlarni talab qilishi mumkin.

Pullarni yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash bo'yicha talablar:

Barcha ishtirokchilar pullarni yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashning belgilangan normalariga (660-II Qonun, 3309-son Qaror o'zgartirishlar bilan) rioya qilishi shart.

3.3. Ta'minotdagi aktivlar nazorati va auditi

AUZ tokeni O'zbekiston Respublikasi hududidagi Saqlovchida ishonchli saqlashga joylashtirilgan moddiy oltin bilan to'liq ta'minlangan.

Har bir chiqarilgan token ta'minotdagi oltinning 1 grammiga to'g'ri keladi. Moddiy oltinning ekvivalent hajmini oldindan shakllantirmasdan tokenlarni chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'minot mavjudligining nazorati quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- tokenlarni birinchi chiqarishda;
- har bir qo'shimcha emissiyada;
- so'ndirish protseduralarini o'tkazishda.

Kripto-depozitariy kripto-aktiv chiqarishni ro'yxatdan o'tkazishga talabnomani ko'rib chiqish doirasida aktivlarning mavjudligini tekshiradi.

AUZ tokenlari ta'minotini tashkil etadigan quymalarni raqamli hisobga olishning kiritilishi har bir quymani identifikatsiyalash va uning muomaladagi tokenlar hajmiga muvofiqligini ta'minlaydi.

Foydalanuvchilarning ishonchini saqlab qolish va modelning shaffofligini ta'minlash maqsadlarida ta'minot auditi – audit o'tkazish uchun litsenziyaga ega bo'lgan tashqi kompaniya tomonidan muntazam tekshiruvlar o'tkaziladi.

3.4. Kripto-depozitariyning roli va mahalliy hujjatlar

AUZ tokeni bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar kripto-depozitariyning tokenni joylashtirish, reklama qilish va uning aylanmasiga qo'shimcha talablarni belgilaydigan mahalliy hujjatlari bilan ham tartibga solinishi mumkin.

AUZ tokeni ryeklamasi va marketingini nazorat qilish – token reklamasi belgilangan normalarga muvofiq bo'lishi, reklamada daromadlilik bo'yicha va'dalar bo'lmasligi va ehtimoliy xatarlarni hisobga olishi zarur.

Listing va savdo operatsiyalari – kripto-depozitariy AUZ tokeni bilan savdolar uchun qo'shimcha shartlarni, shu jumladan emissiyaning shaffofligi va AML/tartibga soluvchi standartlariga muvofiqligiga talablarni belgilashi mumkin.

Tranzaksiyalar monitoringi – noqonuniy foydalanish va firibgarlik sxemalarining oldini olish maqsadlarida tranzaksiyalar qo'shimcha tekshirilishi mumkin.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar so'rovi bo'yicha aktivlarni muzlatish imkoniyati – buzilishlar aniqlanganda yoki tegishli organlarning so'rovi bo'yicha Emitent muayyan hamyonlarni bloklashi mumkin.

4. Xatarlar va ularni pasaytirish choralari

AUZ tokeni ishlashining barqarorligini va uzluksizligini ta'minlash uchun xatarlarni boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish zaruriyatini tan olgan holda yashirin xatarlarni aniqlash, baholash va minimallashtirishga yo'naltirilgan xatarlarni boshqarish tizimi amalga oshirilgan.

Ushbu tizim doirasida operatsiya, texnologik, huquqiy va bozor xatarlari muntazam baholab boriladi, bu xatarlarni pasaytirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday yondashuv AUZ tokenlarini chiqarish va muomalaga kiritish modelining

barqarorligini ta'minlaydi va token egalarining manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashadi.

Tokenlarning Egasi AUZ tokenlarini sotib olish, saqlash va begonalarga berish yoki ular bilan bog'liq servislardan foydalanish bilan quyida bayon etilgan xatarlar bilan tanishganligi va tegishli operatsiyalarning oqibatlarini tushunishini tasdiqlaydi.

Token egasiga ular bilan bog'liq xatarlarni tushunmagan hollarda AUZ tokenlarini sotib olish, saqlash yoki begonalarga berish yoki tegishli servislardan foydalanish tavsiya etilmaydi.

AUZ tokenlarini sotib olish, saqlash va begonalarga berish, shuningdek sayt xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq xatarlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Emitent tomonidan yumshatiladigan xatarlar

Moliyaviy xatarlar

1. Oltinning bozor qiymati o'zgarib turishi

AUZ tokenlarining qiymati oltinning bozor qiymatidan kelib chiqib belgilanadi. Oltin kotirovkasi xalqaro tovar bozorlarida shakllanadi va makroiqtisodiy omillar, foiz stavkalari, inflyatsiya kutilmalari o'zgarishlari, valyuta o'zgarib turishlari, shuningdek geosiyosiy hodisalarning ta'siri ostida o'zgarishi mumkin.

2. Listing likvidligi va xatari

AUZ tokenlari muomalada bo'ladigan bozorlar likvidlikning turli darajasi bilan tavsiflanishi mumkin. Ayrim savdo maydonchalari, boshqa bozorlarda likvidlik chegaralangan yoki umuman mavjud bo'lmasligi mumkin bo'lgan bir vaqtda, bitimlarning yetarli hajmini ta'minlashi mumkin. Past likvidlik tokenlar bozor narxining yuqori o'zgaruvchanligiga olib kela oladi.

Emitent loyihaning texnik va operatsiyalar shartlariga muvofiq ravishda AUZ tokenlarini turli blok-cheyn-tarmoqlarda chiqarish huquqiga ega.

Turli tarmoqlarda muomalada bo'ladigan tokenlar tarmoqlar o'rtasida harakatlanishi uchun o'zaro aloqaning (bridge) maxsus mexanizmlaridan foydalanishni talab qilishi mumkin. Bunday o'zaro aloqaning imkoniyat va shartlari cheklangan bo'lishi mumkin.

AUZ tokenlarini sotib olish yoki begonalashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan faol birlamchi yoki ikkilamchi bozorning mavjud bo'lishi kafolatlanmaydi

3. Oltin zaxiralari bilan bog'liq xatarlar:

Har bir AUZ tokeni shakllantirilgan oltin ta'minoti tarkibiga kiradigan va ishonchli saqlash uchun Saqlovchida joylashtirilgan moddiy oltinning bir grammiga to'g'ri keladi. Saqlash va ichki nazorat protseduralari qo'llanishiga qaramay, oltin ta'minoti tabiiy ofatlar, texnogen hodisalar, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari, bankrotlik, terroristik hujumlar yoki bular bilan cheklanmagan holda boshqa fors-major xarakteridagi favqulodda

vaziyatlar oqibatida yo'qolish, shikastlanish, o'g'irlanish xatarlariga yoki kirishni cheklashlarga uchrashi mumkin.

4. Bank tashkilotlarining bankrotlik xatari

Tokenlarning ta'minotini tashkil qiladigan mablag'lar bank infratuzilmasiga joylashtiriladi va saqlanadi. Tegishli bankka nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik, sanatsiya, tugatish yoki bankrotlik protseduralari kiritiladigan hollarda bunday mablag'lardan foydalanish vaqtincha cheklanishi yoki qiyin bo'lishi mumkin. Ishonchli moliya muassalarini tanlash va xatarlarni diversifikatsiyalash bo'yicha ko'riladigan choralarga qaramay, Emitent bank tashkilotlarining moliyaviy to'lovga qobiliyatsizlik xatarini to'liq istisno eta olmaydi, bu esa tokenlar bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlariga ta'sir qilishi mumkin.

5. Majburiyatlarni bajarish muddatlari xatari

AUZ tokenlari shu jumladan ta'minotda bo'lgan moddiy oltin hisobiga qoplanadi. AUZ tokenlarini natura shaklidagi moddiy oltin olib qoplashda (in-kind) tegishli kichik nominaldagi (masalan, 5 yoki 10 gramm) quymalarning vaqtincha bo'lmaslik vaziyati yuzaga kelishi mumkin.

Moliyaviy xatarlarni pasaytirish mexanizmlari

1. Emitent AUZ tokenlari qiymatining 1 AUZ tokeni = 1 gramm oltin hisobidan moddiy oltinga bevosita bog'lanishini ta'minlaydi, bu tokenning bazaviy aktiv bilan iqtisodiy aloqasini saqlash imkonini beradi. Token narxi oltinning baarcha tomonidan tan olingan xalqaro kotirovkalari asosida belgilanadi, bu narxning shakllanish mexanizmi shaffofligini ta'minlaydi va token qiymati bilan manipulyatsiyalar xatarini pasaytiradi.
2. Emitent AUZ tokenlari muomalasining infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan kripto-birjalar va kripto-aktivlar muomalada bo'ladigan boshqa maydonchalar bilan o'zaro aloqa choralarni ko'radi, bu foydalanuvchilarning token muomalada bo'ladigan bozorlarga kirishini kengaytiradi.
3. AUZ tokenlari ta'minotiga kiradigan oltin quymalari qimmatbaho metallarni belgilangan xavfsizlik protseduralariga muvofiq saqlaydigan ishonchli saqlashga ixtisoslashgan saqlovchi (bank) da joylashtiriladi
4. Emitent ishonchlilikning yuqori darajasiga ega va qo'llaniladigan qonunchilik talablariga muvofiq bo'lgan moliyaviy muassasalar orqali mablag'larni joylashtirishga va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishga intiladi.
5. AUZ tokenlarini so'ndirish operatsiyalari bilan bog'liq hisob-kitoblar bank infratuzilmalari orqali banklar tomonidan belgilangan hisob-kitoblarni o'tkazish qoidalari va protseduralariga muvofiq amalga oshiriladi. Bank operatsiyalari kredit tashkilotlarining vaqtinchalik reglamentlari va bank qonunchiligi talablari bilan tartibga solinadi, bu hisob-kitoblarni o'tkazish muddatlarining oldindan belgilanishini ta'minlaydi. Tartibga solinadigan bank infratuzilmasidan foydalanish tokenlar bilan operatsiyalar bo'yicha majburiyatlarni bajarishda kechikishlar xatarini pasaytiradi.

4.2. Texnik xatarlar

1. Kiberhujumlar va noqonuniy foydalanish

Blokcheyn infratuzilmasi va u bilan bog'liq raqamli tizimlar smart-kontraktga, foydalanuvchining hamyonlariga yoki tizimning boshqa elementlariga noqonuniy kirishga ruxsat olishga yo'naltirilgan kiberhujumlarga uchrashi mumkin.

2. Dastur kodidagi xatolar

Smart-kontraktlar yoki tizimning dasturiy komponentlaridagi zaifliklar platforma ishida to'xtalishlarga yoki operatsiyalarni bajarish mantig'ining buzilishiga olib kelishi mumkin.

3. Tarmoq va infratuzilmadagi to'xtalishlar

Tarmoqqa tushadigan yuqori yuklanish, texnik nosozliklar yoki blokcheyn infratuzilmasidagi to'xtalishlar tranzatsiyalarga ishlov berish tezligini cheklashi va tizimning ayrim elementlaridan foydalanishga vaqtincha ta'sir qilishi mumkin.

Texnik xatarlarni pasaytirish mexanizmlari

1. AUZ tokeni smart-kontraktleri ulardan keng foydalanishdan dan oldin testlashdan va mustaqil auditdan o'tadi.
2. Blokcheyn-infratuzilmaning arxitekturasi ma'lumotlarni saqlash va ishlov berishning taqsimlangan mexanizmlaridan foydalanishni ko'zda tutadi, bu tizimning texnik to'xtalishlarga chidamliligini oshiradi.
3. Noqonuniy foydalanishning oldini olish va yashirin tahdidlarni aniqlash uchun axborot xavfsizligi va tarmoq monitoringining zamonaviy vositalaridan foydalaniladi.

Ko'rsatilgan vaziyatlardan istalgani alohida quymalar yoki umuman ta'minotning bir qismiga ta'sir qilishi mumkin.

4.3. Yengib bo'lmaz kuch vaziyatlari bilan bog'liq xatarlar

1. Tabiiy yoki texnogen xarakterdagi halokatlar

Tabiiy ofatlar, texnogen avariya, yong'inlar, urushlar, suv toshqinlari, zilzilalar yoki boshqa favqulodda vaziyatlar loyihaning ishlashi uchun foydalaniladigan infratuzilmaning, shu jumladan bank infratuzilmasi, aloqa tizimi va internet kanallarining zararlanishi yoki ulardan vaqtincha foydalanish imkoniyati bo'lmazligiga olib kelishi mumkin.

2. Me'yoriy-huquqiy bazani o'zgartirish

Kripto-aktivlar aylanmasini, kripto-platformalar operatorlarining faoliyatini yoki foydalanuvchilarning raqamli aktivlardan foydalanishini tartibga soluvchi qonunchilik yoki me'yoriy talablarning o'zgarishlari tokenlarni chiqarish, muomalaga kiritish yoki foydalanish shartlariga, shuningdek Emitent faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin.

3. Uchinchi shaxslarning insofsiz harakatlari

Uchinchi shaxslar, shu jumladan bozor ishtirokchilari va raqobatchilar loyihani obro'sizlantirish, noto'g'ri axborotni tarqatishga yo'naltirilgan harakatlarni qilishi yoki bozorda turli manipulyatsiyalar qilishga urinishi mumkin, bu foydalanuvchilar va bozor ishtirokchilarining loyihani qabul qilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

4. Iqtisodiy model

AUZ tokeni ta'minotini shakllantirish moddiy oltin sotib olishga yo'naltiriladigan jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Emitent O'zbekiston Respublikasining tijorat bankidan o'rnatilgan tartibda oltin quymalarini sotib oladi va Saqlovchiga javobgarlik ostida saqlash uchun joylashtiradi.

Har bir sotib olingan quyma AUZ tokeni ta'minoti tarkibiga kiritiladi, tokenlar esa faqat 1 token=1 gramm oltin hisobidan moddiy oltinning tegishli hajmi shakllantirilgandan so'ng chiqariladi.

Tokenlar sotilgani sari ularni joylashtirishdan olingan mablag'lar oltin quymalarini qo'shimcha sotib olishga yoki tokenlarni yo'q qilish bo'yicha majburiyatlarni bajarishga yo'naltiriladi.

Model daromadi quyidagilar hisobiga shakllanadi:

- AUZ tokenlarini sotib olish va sotish operatsiyalarida, shu jumladan AUZ tokenlarini pul mablag'lariga ayirboshlash va aksincha operatsiyalarda undiriladigan komissiyalar va savdo spredi;
- tokenlarni natura shaklida moddiy oltin olib yo'q qilishdagi komissiyalar (in-kind);
- AUZ tokeni chiqarish shartlarida ko'zda tutilgan boshqa servis yig'implari.

5. Rivojlantirish rejasi va yo'l xaritasi

Ta'minlangan AUZ tokeni oltin muomalasining o'zida moddiy aktivning ishonchligini blokcheyn-texnologiyalar afzalliklari bilan mujassamlashtirgan raqamli instrumentini yaratishga yo'naltirilgan.

Loyihaning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

– moddiy oltin bilan ta'minlangan tokenlar muomalasining shaffof va texnologik samarali mexanizmini yaratish;

– raqamli iqtisodiyotda investitsiyalar va boshqa operatsiyalarda oltinni raqamli taqdim etishdan foydalanish uchun infratuzilma shakllantirish.

Ko'rsatilgan maqsadlarga erishish loyihaning bosqichma-bosqich rivojlanishini, jumladan tokenni ishga tushirish, muomala infratuzilmasini shakllantirish va keyinchalik undan foydalanish imkoniyatini kengaytirishni ko'zda tutadi.

1. Ishga tushirish va joriy etish

Birinchi bosqich loyihaning bazaviy infratuzilmasini shakllantirishga va AUZ tokeni muomalasini ishga tushirishga qaratilgan.

Asosiy vazifalari:

- oltin ta'minotining dastlabki hajmini shakllantirish;
- AUZ tokenlarining birinchi partiyasini chiqarish;
- smart-kontrakt va tokenlarni hisobga olish infratuzilmasini ishga tushirish;
- oltin quymalarini saqlash va hisobga olish infratuzilmasini ulash;
- tokenlarni sotib olish va sotish operatsiyalarini ishga tushirish.

2. Infratuzilma va likvidlikni rivojlantirish

Ikkinchi bosqichda bozorda token muomalasining infratuzilmasini rivojlantirish va barqaror likvidligini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Asosiy vazifalari:

- AUZ tokenini qo'llab-quvvatlovchi kripto-aktivlar aylanmasi sohasida xizmatlar provayderlari sonini kengaytirish;
- ikkilamchi bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- tokenning likvidligini ta'minlash va tokenning bozordagi muomalasini quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;
- AUZ tokenlaridan foydalanish va saqlash servislarini rivojlantirish.

3. Ekotizim ko'lamini kengaytirish va rivojlantirish

Uchinchi bosqichda AUZ tokenidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va uni yanada kengroq raqamli moliyaviy infratuzilmaga integratsiyalash mo'ljallanadi.

Asosiy vazifalari:

- AUZ tokenidan foydalanishni kengaytirish;
- tokendan turli blok-cheynlarda foydalanish uchun tarmoqlararo o'zaro aloqani rivojlantirish;
- sheriklik dasturlarini rivojlantirish va xalqaro raqamli platformalar bilan integratsiyalash;
- tokenlar muomalasi o'sib borgan sari oltin ta'minot hajmlarini kengaytirish.

6. XULOSA

AUZ tokeni ta'minlangan kripto-valyutadan iborat bo'lib, uning har bir birligi O'zbekiston Respublikasida javobgarlik ostida saqlanadigan moddiy oltinning bir grammiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydi. Loyiha ma'lumotlarning taqsimlangan reyestridan foydalanib oltin muomalasining texnologik jihatdan zamonaviy va yuridik jihatdan shaffof modelini yaratishga yo'naltirilgan.

AUZ an'anaviy oltin va raqamli infratuzilma afzalliklarini birlashtiradi.

Fiat valyuta bilan ta'minlangan steypblokoinlardan farqli ravishda AUZ tarixan tan olingan qadriyatga ega bo'lgan va inflyatsiya va valyuta xatarlarini xejlash vositasi sifatida foydalaniladigan moddiy aktivga tayanadi.

Tokenlarni chiqarish va yo'q qilish mexanizmi ortiqcha emissiyani istisno etadi, chunki har bir token oltinning muayyan hajmi bilan ta'minlangan. Model ta'minotning nazorat qilish, ichki monitoring va tashqi audit protseduralarini ko'zda tutadi.

Shunday qilib, AUZ o'zida oltin bilan moddiy ta'minlanganlik va blokcheyn-tizimining texnologik moslashuvchanligini mujassamlashtiruvchi instrument bo'lib, qimmatbaho metallarning raqamli shakldagi muomalasining zamonaviy modelini yaratadi.

“FINANCE INVEST BROK” MCHJ

Direktori

/imzolangan/

A.Yu. Urinbayev

Muhr: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, “FINANCE INVEST BROK” Mas'uliyati cheklangan jamiyati

“2026 yil 6 mart”